

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**

25-avgust 2026-yil

**10.00.02 –O‘zbek mumtoz adabiyoti ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2026

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2026-yil 25-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar: f.f.d., professor N.Jabborov,
f.f.d., professor D.Yusupova
f.f.d., professor Q.Pardayev**

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”i hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF-98-son Farmoni oliy ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797 Farmonida aks etganidek, o‘zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini qayd etish joiz. O‘zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti ixtisosligi buyicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonining ushbu dasturi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tuzildi va taqdim qilingan mavzular, nazorat savollari tadqiqotchilar bilim saviyasini aniqlashga yetarli kafolatdir.

Dastur talabgorlarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan muhim manbalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (qadimgi davrlardan XV asrgacha)

Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari. Markaziy Osiyo xalqlariga oid mif va afsonalar. “Avesto” adabiy manba sifatida. “Avesto”ning o‘rganilishi tarixidan.

O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari. To‘nyuquq bitigi. Bitiktoshda shaxs va millat erkinligi ifodalanishi.

Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida afsona va xalq qo‘shiqlari.

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi. “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Dostonning janr xususiyatlari: masnaviy, qasida, to‘rtlik va tuyuq unsurlari. Asarning ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi. "Hibat ul-haqoyiq"ning janr xususiyatlari. Hadislar mazmunining badiiy talqini va uning ahamiyati.

Ahmad Yassaviy. "Devoni hikmat" va hikmatnavislik an'anasi. "Devoni hikmat"ning mavzu ko'lami va ma'rifiy ahamiyati.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodi. "Gulistoni bi-t-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g'oya, yoritilgan masalalar.

Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodi. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qissasu-l-anbiyo") – o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.

Qutb hayoti va ijodi. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari.

Temuriylar davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Bu davrda adabiyotshunoslikning fan sifatidagi taraqqiyoti. "Funun ul-balog'a" – mumtoz poetikaga doir ilk turkiy risola sifatida.

Noma janri va uning takomil bosqichlari. Munozara janri. Nizomiy, Sa'diy va Hofiz asarlarining tarjimalari.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Gulshanu-l-asror" dostoni va Nizomiy ijodi. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti.

Atoyi ijodiy merosining o'rganilishi tarixidan. Atoyining lirik merosi.

Sakkoki hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. She'riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko'lami.

Gadoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Devon"ning janriy tarkibi.

Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari. "Risola"da davr va badiiy ijod bilan bog'liq qarashlar. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Hofiz Xorazmiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Devon"ning janr xususiyatlari.

Sayyid Qosimiy masnaviylari. "Majma'u-l-axbor" – nazira doston sifatida. Shoirning "Gulshani roz", "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" dostonlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalar.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy lirikasining janr xususiyatlari.

Alisher Navoiy. Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. "Xazoyinu-l-ma'niy" – lirik qomus sifatida: tuzilishi va janr xususiyatlari. Mavzular doirasi, g'oyalari va timsollar tizimi.

"Xamsa". "Hayratu-l-abror" dostoni. Dostonning tuzilishi, janr xususiyatlari. "Farhod va Shirin" dostonida insonparvarlik g'oyalari, orzu-umidlari Farhod siymosida. "Layli va Majnun" dostonida pok va yuksak muhabbat ifodasi.

Undagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. "Sab' ai sayyor". Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. "Saddi Iskandariy" – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Navoiyning adolat haqidagi qarashlari talqini.

"Lisonu-t-tayr" falsafiy-tasavvufiy doston sifatida. Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqiga xos munosabati. Simurg – najot timsoli.

"Mahbubu-l-qulub" asari. Asarning adabiy-estetik, axloqiy-ta'limiy ahamiyati, badiiy xususiyatlari.

Alisher Navoiy manoqiblari. "Xamsatu-l-mutahayyiriyin" asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarida tarixiy shaxslar talqini.

Adabiyotshunoslik asarlari: "Majolisu-n-nafois" tazkirasida Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari talqini. "Mezonu-l-avzon" va aruz nazariyasi takomili. "Mufradot" da muammo janriga doir amallar tasnifi.

Bobur. Ijodkor biografiyasi va adabiy merosining o'rganilishi. Shoir lirikasining janr xususiyatlari. "Boburnoma" – badiiy-memuar asar sifatida. Boburning ilmiy merosi: "Risolai aruz", "Mubayyin" asarlari.

Mashrab ijodiy merosi. Mashrabshunoslik tarixidan. Mashrab lirikasi. "Qissai Mashrab" asarining shoir biografiyasi va adabiy merosini o'rganishdagi o'rni.

So'fi Olloyor. Ijodkor adabiy merosining o'rganilishi. "Sabotu-l- o'jizin" asarida ma'rifiy masalalar.

Xo'janazar Huvaydo. Hayoti va ijodi manbalari. Adabiy merosi. Dostoni. Badiiy mahorati.

Amiriy. Shoir hayoti va ijodining o'rganilishi. Adabiy merosi. Badiiy mahorati.

Gulxaniy. Shoir ijodining o'rganilish tarixi. Gulxaniy lirikasi. "Zarbulmasal" asari. Asarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari.

Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning lirik merosi. Nodiraning badiiy mahorati.

Uvaysiy hayoti va ijodi. Shoiraning lirik merosi. "Shahzoda Hasan" va "Shahzoda Husayn" dostonlari.

Shermuhammad Munis adabiy merosi. Ijodkor asarlarining o'rganilishi. Shoir devonining janrlar tarkibi va badiiyati.

Ogahiy biografiyasi va adabiy merosi. Ogahiyshunoslik tadriji. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni. Ogahiy lirikasining janr xususiyatlari va mavzu ko'lam. Ogahiy – tarixnavis. Ogahiy – tarjimon. Ogahiy ijodida Navoiy an'analari.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining xos xususiyatlari. Bu davr adabiyotining takomil bosqichlari. Oʻrganilish tarixi. Yangi oʻzbek sheʼriyatining yuzaga kelish omillari. Zamonaviy nasrning shakllanishi. Drama janrining yuzaga kelish omillari va dastlabki namunalari. Adabiyot va milliy matbuot. Adabiyot va teatr. Adabiy tanqid shakllanishining ijtimoiy-maʼrifiy va adabiy-estetik omillari.

Komil Xorazmiy. Shoir lirikasining mavzu koʻlami va badiiyati. Komil Xorazmiy va maʼrifatparvarlik.

Feruz – madaniyat va sanʼat homiysi. Shoir sheʼriyatining janr xususiyatlari va mavzu koʻlami.

Ahmad Tabibiy. Shoir hayoti va ijodining oʻrganilishi. Tazkirasi. Devonlari.

Muqimiy hayoti va ijodining oʻrganilish tarixi. Shoir lirikasi. Muqimiy hajviyotining xos xususiyatlari. “Sayohatnoma”lari. Muqimiy ijodida maktub janri.

Furqat biografiyasi. Furqatshunoslik tadriji. Shoir lirikasi. Furqat sheʼriyatida rus mustamlakasiga munosabat masalasi. Furqat va jadidchilik. Shoirning tasavvuf taʼlimotiga oid qarashlari. Furqat manzumalari. Furqatning chet ellardagi ijodiy faoliyati.

Isʼhoqxon Ibrat adabiy-ilmiy merosining oʻrganilishi. Ibrat – maʼrifatparvar shoir. Ijtimoiy-maʼrifiy faoliyati: “Matbaai Isʼhoqiya”, “Kutubxonayi Isʼhoqiya”. Ibratning ilmiy asarlari.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. – Тошкент, 2006.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент, 1993.
3. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. – Тошкент: Академнашр, 2011.
4. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
5. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.
6. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2004.
7. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004.
8. Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyot tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2006.
9. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2015.

10. Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. – Toshkent: Noshir, 2019.
11. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси.—Тошкент: Мухаррир, 2011.
12. D. Yusupova. Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili (monografiya). – Toshkent: Ta'lim-media, 2019.
13. D. Yusupova “Xamsa” poetika: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi (monografiya) – Toshkent: TAMADDUN, 2021.
14. D. Yusupova. Sharq mumtoz adabiyoti: talqin va tahlillar (monografiya). – Istanbul, 2025.
15. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2005.
16. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. (1-2 жилд). – Тошкент: Фан, 2003, 2005.
17. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Тошкент: Фан: 1977.
18. Пардаев Қ. Муқимий шеърляти: матн тарихи, таҳрири ва талқини.—Тошкент: Мухаррир, 2019.
19. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent. Bookmany print. 2023. – B. 258.
20. O.Hamroeva Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. Monografiya. -T.: BOOKPRINT, 2022.
21. Tojiboeva O. Alisher Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: tamoyil, mezon va uslub. Monografiya. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

Elektron manbalar

22. <http://natlib.uz>
23. <http://qr.natlib.uz>
24. <http://media.natlib.uz>
25. <http://diss.natlib.uz>
26. <http://nodir.natlib.uz>
27. <http://ensiklopediya.uz>
28. <http://www.infolib.uz>
29. <http://book.uz>

Baholash mezonlari

Kirish sinovi ogʻzaki ravishda oʻtkazilishi belgilangan boʻlib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qoʻyiladigan talablar
86-100	Qoʻyilgan savolga toʻliq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yoʻl qoʻyilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib, bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani toʻgʻri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga yega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim jihatlari yoritilgan yoki umuman yoritilmagan. Savol boʻyicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy masalalar.

2. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarining mavzusi va janr xususiyatlari.

3. Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarining mavzu koʻlami va maʼrifiy ahamiyati.

4. Noma janri va uning takomil bosqichlari.

5. Sayfi Saroyi “Gulistoni bit-turkiy” asarining tarkibiy tuzilishi. Asardagi asosiy gʻoya va yoritilgan masalalar.

6. “Qisasi Rabgʻuziy” – oʻzbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.

7. Temuriylar davrida adabiyotshunoslikning fan sifatidagi taraqqiyoti.

8. Shayx Ahmad Taroziy va uning “Funun ul-balogʻa” asari.

9. Lutfiy lirikasining janr xususiyatlari.

10. Atoyining lirik merosi.

11. Sakkokiy sheʼriyatining janr xususiyatlari va mavzu koʻlami.

12. Gadoiyning ijodiy merosi.

13. Hofiz Xorazmiy “Devon”ining janr xususiyatlari.

14. Sayyid Qosimiy masnaviylari.

15. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari.
16. Alisher Navoiy hayoti va ijodining manbalari.
17. “Xazoyin ul-maoniy” – lirik qomus sifatida.
18. “Hayrat ul-abror” dostonining tuzilishi, janr xususiyatlari.
19. “Farhod va Shirin” dostonida insonparvarlik g‘oyalari, orzu-umidlari Farhod siymosida.
20. “Layli va Majnun” dostonida pok va yuksak muhabbat ifodasi.
21. “Sab’ai sayyor” dostonining tarkibiy tuzilishi, hikoyatlar olami.
22. “Saddi Iskandariy” – falsafiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy asar.
23. “Lison ut-tayr” falsafiy-tasavvufiy doston sifatida.
24. Navoiyning tarixiy asarlari.
25. Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” manoqibida Abdurahmon Jomiy timsoli.
26. “Mahbub ul-qulub”da ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy masalalar.
27. “Boburnoma” – adabiy-tarixiy memuar sifatida.
28. Boburning ilmiy-adabiy merosi: “Risolai aruz” va “Mubayyin” asarlari.
29. Bobur lirikasining badiiy-g‘oyaviy xususiyati
30. “Boburnoma”ning o‘rganilish tarixi.
31. “Qissai Mashrab” asarining shoir biografiyasi va adabiy merosini o‘rganishdagi o‘rni.
32. Mashrab lirikasida tasavvuf g‘oyalari talqini.
33. Mashrab ijodining o‘rganilish masalalari.
34. Amiriy hayoti va adabiy merosi.
35. Amiriy devoni janr xususiyati.
36. Amiriy lirikasi badiiyati.
37. Uvaysiy hayoti va ijodining o‘rganilishi.
38. Uvaysiy chistonlari badiiyati.
39. Uvaysiy lirikasi janr xususiyati.
40. Uvaysiyning lirik merosi.
41. Uvaysiyning “Shahzoda Hasan” va “Shahzoda Husayn” dostonlari.
42. Nodiraning badiiy mahorati.
43. Nodira devonining janriy xususiyati.
44. Nodira ijodining o‘rganilishi.
45. Gulxaniy lirikasi badiiyati.
46. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari.
47. Xo‘janazar Huvaydo hayoti va ijodining o‘rganilishi.
48. Huvaydo badiiy mahorati.
49. So‘fi Olloyor adabiy merosining o‘rganilishi.
50. Shermuhammad Munis adabiy merosi.
51. Ogahiy lirikasining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami.
52. Ogahiyning tarjimonlik faoliyati.
53. Feruz – madaniyat va san’at homiysi.
54. Feruz she’riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami.
55. Komil Xorazmiy lirikasining mavzu ko‘lami va badiiyati.

56. Komil Xorazmiy asarlarida ma'rifatparvarlik.
57. Tabibiy hayoti va ijodining o'rganilishi.
58. Tabibiy devonlari janr xususiyati.
59. Muqimiy "Sayohatnoma"lari.
60. Muqimiy ijodida maktub janri.
61. Furqat she'riyatida rus mustamlakasiga munosabat masalasi.
62. Furqatshunoslik tadriji.
63. Furqatning chet ellardagi ijodiy faoliyati.
64. Furqatning tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari.
65. Milliy uyg'onish davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
66. Ibrat she'riyatida milliy uyg'onish g'oyasi talqini.
67. Ibratning ilmiy asarlari.
68. Ibratning Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati.